

O'RTA OSIYO MINTAQASIDA IQTISODIY REGIONAL INTEGRATSIYA IMKONIYATLARI

Patxiddinova Aziza To'lqin qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti
“Xalqaro iqtisodiyot va menejment” fakulteti
magistr bosqichi talabasi

Abstrakt. O'zbekistonning eng yirik 10 ta savdo hamkorlari orasida 4 O'rta Osiyo mamlakatlari mavjud va ular bilan savdo hajmi oxirgi 5 yilda 260% ga oshgan. Bu davlatlar rivojlanayotgan o'tish iqtisodiyotga egaligi hisobidan, ma'lum shartlar ostida import va eksportga bo'lgan cheklovlar, xususan, bojlar olib tashlanishining iqtisodiyotga kutilayotgan ijobjiy ta'siri bir yaxlit regional iqtisodiy integratsiya tuzishning naqadar muhimligiga dalolat qiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy regional integratsiya, erkin savdo shartnomalari, imtiyozli bojaxona tariflari, intellektual mulk himoyasi, mehnat sharotlariga talablar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 2023-yilning birinchi yarmida 29,2 milliard AQSH dollarini tashkil etib, 4,7 milliard AQSh dollariga yoki 19,4 foizga o'sdi. 2022 yilning mos davriga nisbatan. tashqi savdo aylanmasi umumiy hajmidan eksport 12140,0 mln. AQSH dollarini (o'sish 23,0%), import esa 17030,5 mln.AQSH dollarini (o'sish 17,0%) tashkil etdi.¹. Shundan, O'rta Osiyo davlatlari, jumladan, Qozog'iston, Qирг'изистон, Тоҷикистон ва Ағонистон bilan umumiyligi 28% savdolarni amalga oshirgan. Bu ko'rsatkich iqtisodiy integratsiya tashkil etish muhimligiga dalolat qiluvchi belgi hisoblanadi. Yana quyida tashqi savdo aylanmasig

¹ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/44510-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2023-yil-yanvar-avgust>

kiruvchi alohida shartnomalar bo‘yicha savdo aloqalarining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan:

- eksport va import: O‘zbekiston va O‘rta Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi savdo aloqalari oxirgi 5 yilda 2,6 barobarga oshgan. Milliy bozorni himoya qilish uchun JST ga a’zo bo‘limgan O‘zbekiston¹ uchun O‘rta Osiyoda iqtisodiy integratsiya qilish ayni muddao bo‘lar edi.

- investitsiyalar va sarmoyaviy hamkorliklar: O‘zbekiston Markaziy Osiyoda mintaqaviy iqtisodiy tashabbuslarda faol ishtirok etib kelmoqda. Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) va Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturi (CAREC) kabi mintaqaviy tashkilotlari shular jumlasidandir. Lekin, aynan Markaziy Osiyo davlatlari bilan alohida investitsion kelishuv bo‘lganida, kichik mablag‘lar jalb etish, xususan, kichik tadbirkorlik sektorlariga investitsiya jalb etish iqtisodiyotga hissa qo‘shadi.

- transport va logistika: O‘zbekiston O‘rta Osiyo mamlakatlarining infrastrukturasini yaxshilash vazifasi yuklatilgan integratsiya samaradorlikka ijobjiy ta’sir qiladi. Bunda, kiritilgan investitsiyalar regionda samarali yuk tashish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini keskin pasaytirishga yordam beradi.

- milliy valyuta almashinuvlari: valyuta tizimida o‘zgarishlar, savdo operatsiyalarini ta’sir qilishi mumkin. O‘zbekiston va O‘rta Osiyo mamlakatlarining valyuta kurslarini qanday tutishlari va boshqa moliyaviy asoslar savdo aloqalariga, albatta, ta’sir qiladi. Tuziladigan integratsiyada, savdo valyutasi sifatida dollar emas, so‘m yoki nisbatan yaxshi ko‘rsatkichga ega valyuta tanlansa, region avtonomligi va dollarga qaram bo‘lmasligi kafotlatlanadi.

- iqtisodiy sohalarda hamkorlik: energetika, sanoat, texnologiya sohalaridagi hamkorlik yaxlit bir kelishuv bilan tartibga solinsa, ishlab chiqaruvchilar uchun manfaatli va xaridorlar uchun keng tanlov bo‘lishi kafolatlanadi.

¹ Normatov, J. (2018). Uzbekistan’s Long way to the world trade organization. L’Europe En Formation, 385(1), 104. <https://doi.org/10.3917/eufor.385.0104>

Bu iqtisodiy regional kooperatsiya AQSh, Meksika va Kanada o‘rtasidagi USMCA tashqi savdo kelishuvi¹da keltirilgan bir qancha tajribalar natijasida samarador bo‘lishi mumkin. Masalan, bir mahsulotning bojlarda mutlaqo ozod bo‘lishi uchun uning belgilangan foizi shu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan bo‘lishi kerak. Ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida intellektual mulkni himoya qilish ham va bojdan ozod bo‘lish uchun shu shartni bajarishi belgilanishi lozim. Ishlab chiqarish shaoitini yaxshilash va unga qo‘yilgan ma’lum talablarni bajarish bojdan ozod qilinish uchun zarur etib belgilanishi lozim. Shunda nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki davlatlarning ijtimoiy himoya vazifasi ham bajariladi.

Xulosa o‘rnida, Markaziy Osiyo mintaqasida yagona iqtisodiy regional integratsiya tashkil etish va uning talablari orqali mintaqada iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish mumkin. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan ko‘rsatmalar bo‘yicha va ularni yanada takomillashtirgan holda tuzilgan iqtisodiy kooperatsiya 5 davlat – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qирг‘изистон, Tojikiston, Turkmaniston uchun istiqbolli loyiha bo‘ladi.

¹ <https://ustr.gov/trade-agreements/free-trade-agreements/united-states-mexico-canada-agreement/agreement-between>